

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Ro‘yxatga olindi:
№ _____
2008 yil «__» ____

O‘zbekiston Respublikasi Oliy
va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
2008 yil «____» _____ dagi
«____»- sonli buyruq bilan
tasdiqlangan

**TILSHUNOSLIKKA KIRISH
fanining**

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200000	-	Gumanitar fanlar va san’at
Ta’lim sohasi:	220000	-	Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5220100	-	Filologiya (sharq tillari)

Toshkent - 2008

Fanning o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2008 yil «___» _____ dagi «___»- son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik institutida ishlab chiqildi.

T u z u v c h i:

Sodiqov Q. – “Mumtoz filologiya” kafedrasining mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

T a q r i z c h i l a r:

Omonov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti «Turkiyot» kafedrasining mudiri v.b., filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Dadaboyev H. – O‘zbekiston Milliy universiteti “Umumiy tilshunoslik” kafedrasining mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Fanning o‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Ilmiy-uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2008 yil _____dagi «___»- sonli bayonnoma)

Kirish

Tilshunoslikka kirish - bo'lg'usi sharqshunos filologlarning o'z yo'nalishlari bo'yicha ilk til bilimlarini o'zida qamrovchi nazariy kurs. Ushbu fan ko'magida sharq filologiyasi fakultetlarida o'qiyotgan talabalarning tilshunoslik to'g'risidagi bilimlari boyib boradi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi tilshunoslik fanining o'rganish sohasi, tilshunoslik fanining boshqa fanlar (sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, falsafa, tarix va boshqalar) bilan munosabati, filologiya va tilshunoslik, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, til - ijtimoiy hodisa, til va nutq qatlamlari; fonetika va fonologiya fanlarining shakllanishi, ularning o'rganish ob'ektlari, morfologiya, uning o'rganish doirasi, tilning lug'at tarkibi, sintaksisning o'rganish doirasi va predmeti, tillarning tipologik tasnifi: genetik tipologiya, tillar oilasi, yozuv, yozuv turlari to'g'risida ma'lumotlarni ilmi toliblarga yetakazishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

“Tilshunoslikka kirish” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- tilning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari to'g'risida; sharq tillarining taraqqiyot bosqichlari; til va nutq qatlamlari, fonetika morfologiya, tilning lug'at tarkibi, sintaksisning o'rganish masalalarini ***bilishi kerak***;
- tillarning tipologik tasnifi: genetik tipologiya, dunyo tillari oilasini farqlash ***ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak***;
- yozuv, yozuvning paydo bo'lishi, uning asosiy turlarini ajrata olish ***malakasiga ega bo'lishi kerak***.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Tilshunoslikka kirish” asosiy umumkasbiy fanlar qatorida turuvchi fan hisoblanib, 1- semestrda o‘qitiladi.

Ushbu o‘quv fanini o‘zlashtirish uchun o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy (O‘zbekiston tarixi, g‘arb tili, o‘zbek tili), matematik va tabiiy-ilmiy fanlar (geografiya, etnografiya), umumkasbiy (asosiy sharq tili, tilshunoslikka kirish, qo‘shimcha sharq tili v.b.) va ixtisoslik fanlari (maxsus filologiyaga kirish, ASiT leksikologiyasi, ASiT nazariy grammatikasi v.b.) dan yetarli bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Maktabgacha ta’lim muassasasi, o‘rta umumta’lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari faoliyat olib borilganda tilshunoslikka kirish kursidan olingan bilimlar qo‘l keladi. Shuning uchun ushbu fan asosiy umumkasbiy fan hisoblanib, sharq filologiyasi bo‘yicha bakalavr tayyorlash bosqichining ajralmas bo‘g‘inidir.

Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ilmi toliblarning tilshunoslik kirish fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va yetakchi usullarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fanni o‘qitish jarayonida darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, dars yo‘rug‘lari, tarqatma materiallar va ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi.

Asosiy qism

Fanning nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari, sharq tillarining taraqqiyot bosqichlari, til va nutq qatlamlari, fonetika morfologiya, tilning lug‘at tarkibi, sintaksisning o‘rganish masalalari, tillarning tipologik tasnifi: genetik tipologiya, dunyo tillari oilasi, yozuv, yozuvning paydo bo‘lishi, uning asosiy turlari to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar.

Tilshunoslikning shakllanishi

Kirish. «Tilshunoslikka kirish» fanining maqsad va vazifalari. Tilshunoslik – fan sifatida. Tilshunoslikning bo'limlari. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan munosabatlari. Tilshunoslikning shakllanishi. Uning tarixiy bosqichlari. Sharq va g'arb tilshunosligi tarixidan. Hozirgi zamon tilshunosligi. Til va jamiyat. Tilning kelib chiqishi to'g'risidagi ko'zqarashlar. Til – ijtimoiy hodisa. Til va tafakkur. Tilning funksiyalari. Til va nutq.

Dunyo tillari

Dunyo tillari, tillarning genealogik, tipologik tasnifi. Turkiy tillar oilasi, somiy tillari oilasi, eroniy tillar, hind tillari, xitoy tillari. Yapon, koreys, malay, indonez tillarini tashkil etuvchi til oilalari. Aglyutinativ, flektiv va amorf tillar.

Yozuv va uning kelib chiqishi

Yozuv va uning kelib chiqishi. Yozuvning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida tutgan o'rnini. Yozuvning adabiy til o'lchovlarini belgilashdagi, matnchilikdagi ahamiyati.

Grafemika. Yozuv turlari: piktografik, ideografik, fonografik yozuv.

Til va nutq qatlamlari

Fonetika va uning ob'ekti. Tovush va fonema tushunchasi. Harf va tovush munosabatlari. Unlilar va undoshlar tizimi. Tovush o'zgarish hodisalari. Tovushni yozuvda aks ettirish masalalari. Transkripsiya, transliteratsiya.

Leksikologiya va leksikografiya. So'z va uning ma'nosi. Ma'no ko'chish yo'llari. Polisemantizm. Iboralar (frazologizmlar). Omonim, sinonim va antonim so'zlar. Tilning lug'at tarkibi (leksikografiya). Atama haqida tushuncha. Yangi so'zlar (neologizmlar). Eskirgan so'zlar (arxaizmlar). Istorizmlar. Dialektal qatlam. Chegaralangan leksika, tabu va evfemizm.

Grammatika va uning bo'limlari. Morfema va uning turlari. So'zning morfem tizimi. Qo'shimcha, uning turlari. So'z yasalishi.

So'z turkumlari. So'zlarni turkumlarga bo'lish prinsiplari. Mustaqil va yordamchi so'zlar. Sintaksis. So'z birikmasi, uning so'z va gapdan farqi. Gap va uning tuzilishi. Gapning bosh va ikkinchi darajali

bo'laklari. Gap turlari. Sodda va qo'shma gaplar, ularning muhim belgilari.

Stilistika. Og'zaki va yozma uslublar. Funksional uslub turlari.

Amaliy mashg'ulotlarni uyushtirish bo'yicha ko'rsatma va yo'llanmalar

Amaliy mashg'ulotlarda ilmi toliblar tilshunoslikka kirishning muhim jihatlariga e'tibor qaratadilar.

Amaliy darslarda ko'zda tutilgan mavzular:

1. Berilgan matnni fonetik tahlil qilish. So'zlardagi tovush hodisalarini aniqlash.

2. Berilgan matndagi so'zlarni leksik jihatdan tahlil qilish. So'z ma'nolarini aniqlash, matnda qo'llangan so'zlarning iste'mol doirasini (arxaik so'zlar, dialektal so'zlar, uslubiy chegaralangan so'zlar va b.) sharhlash.

3. Morfem tahlil. So'z tarkibi: o'zak, negiz va qo'shimchalar tahlili.

4. So'z turkumlariga ko'ra tahlil.

5. Gap tahlili.

6. Til uslublari. Til uslublariga mos matnlar tanlash va uning xarakterli qirralarini sharhlab berish.

Amaliy darslarni uyushtirish bo'yicha kafedraning professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va yo'llanmalar ishlab chiqiladi. Unda ilmi toliblar ma'ruza darslarida olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan boyitadilar. Shuningdek, darslik, o'quv qo'llanmalar, dars yo'rug'lari asosida talabalar bilimini mustahkamlashga erishish, ilmiy maqolalar va tezislar chop etish orqali talabalar ilmiy faolligini oshirish, mavzular bo'yicha ilmiy ma'ruzalar tayyorlash tavsiya etiladi.

Laboratoriya ishlarini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fanning o'quv dasturida laboratoriya mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan

Kurs ishini uyushtirish bo'yicha ko'rsatmalar

Fanning o'quv dasturida kurs ishi ko'zda tutilmagan

Mustaqil topshiriqlarni uyushtirishning shakli va mazmuni

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko'rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

- darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari va dars yo'rug'laridan kurs mavzularini o'rganish;
- tilning paydo bo'lishi bilan bog'liq mavzularni o'zlashtirish;
- til va nutq qatlamlarini tahlil etish;
- tilshunoslikning yo'nalishlari, tekshiruv va yondashuv yo'llarini bilish;

Mustaqil topshiriqlarning mavzulari:

1. Dunyo tillari, tillarning genealogik, tipologik tasnifi.
2. Oltoy tillari oilasi.
3. Somiy tillari oilasi.
4. Hind-ovrupa tillari oilasi
5. Xitoy-tebet tillari oilasi
6. Aglyutinativ, flektiv va amorf tillar.
7. Yozuvning jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida tutgan o'rni.
8. Yozuv turlari: piktografik, ideografik, fonografik yozuv.

Dasturning informasion-uslubiy ta'minoti

Ushbu fanni o'rgatish davomida o'qitishning zamonaviy usullari va axborot texnologiyalarini qo'llash ko'zda tutilgan.

- til paydo bo'lishiga tegishli mavzularni o'zlashtirishda kompyuter texnologiyalari ko'magida taqdimot va elektron-didaktik vositalar qo'llaniladi;

- yozuv tarixi va u bilan bog'liq masalalarni o'tganda o'qitishning yetakchi pedagogik texnologiyalaridan foydalagniladi;

- til va nutq atamlari to'g'risidagi mavzularni o'qitganda kompyuter texnologiyalari ko'magida taqdimot va elektron-didaktik hamda o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari qo'llaniladi.

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari

1. *Azizov O.* Tilshunoslikka kirish. T., 1992.
2. *Reformatskiy A.A.* Vvedenie v yazikovedenie. M., 2001.
3. O‘zbek tili grammatikasi. I-II tomlar. Toshkent, 1975-1976.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. *Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh.* Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya. Fonetika. Morfologiya). Toshkent, 1975.
2. *Hojiev A.* Fe‘l. Toshkent, 1973.
3. *G‘ulomov A., Tixonov A., Qo‘ng‘urov R.* O‘zbek tili morfem lug‘ati. Toshkent, 1977.
4. *Shmelev D.N.* Sovremenniy russkiy yazik. Leksika. M., 1977.